



“TASDIQLAYMAN”

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor, Ilmiy-texnik Kengashi raisi
A. J. Jabborova
2026-yil

**02.00.02 – ANALITIK KIMYO VA 03.00.05 – BOTANIKA USTUVOR ILMIY
IXTISOSLIKLARI BO'YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHI TAQDIMOTI
NATIJALARI YUZASIDAN APELLYATSIYA O'TKAZISH TARTIBI**

Umumiy qoidalar

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti natijalaridan norozi bo'lgan talabgor baholash natijalari e'lon qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tashkilot rahbari nomiga yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya arizasi berish huquqiga ega.

Apellyatsiyaning asosiy maqsadi talabgorning taqdimotini takroran imtihon qilish emas, balki baholash jarayonida belgilangan mezonlarga rioya etilganligi, ballarning to'g'ri hisoblanganligi, baholashning xolisligi hamda protsessual talablarning bajarilganligini tekshirishdan iborat.

Apellyatsiya komissiyasini shakllantirish

Apellyatsiya murojaatlarini ko'rib chiqish uchun tashkilot rahbarining buyrug'i bilan kamida 5 nafardan iborat Apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Komissiya tarkibiga tegishli yoki turdosh ixtisoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega mutaxassislar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha tajribaga ega professor-o'qituvchilar va zaruratga ko'ra boshqa oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotdan mustaqil ekspert kiritilishi tavsiya etiladi.

Talabgorning dastlabki taqdimotini baholagan komissiya a'zosi Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilmaydi. Shuningdek, talabgor bilan ilmiy rahbarlik, hammualliflik, bevosita xizmat bo'ysunuvi, qarindoshlik yoki boshqa manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan shaxs apellyatsiyani ko'rib chiqishda ishtirok etmasligi lozim, ya'ni Apellyatsiya komissiyasi tarkibi aynan birinchi baholovchilardan tashkiliy va ekspert jihatdan mustaqil bo'lishi kerak.

Apellyatsiya berish uchun asoslar

Talabgor quyidagi holatlardan biri yoki bir nechitasi mavjud deb hisoblaganda apellyatsiya berishi mumkin:

➤ tasdiqlangan baholash mezonlarining noto'g'ri yoki bir xil bo'lmagan tarzda qo'llanilishi;

➤ *individual baholash varaqalaridagi ballarni hisoblashda arifmetik yoki texnik xatoga yo'l qo'yilishi;*

➤ *taqdimot mazmunining muayyan mezon bo'yicha bahosi yetarlicha asoslantirilmaganligi;*

➤ *talabgorga taqdimot uchun belgilangan vaqt yoki sharoitlarning boshqa talabgorlarga nisbatan teng ta'minlanmaganligi;*

➤ *savol-javob yoki baholash jarayonida tasdiqlangan tartib buzilganligi;*

➤ *baholovchi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganligi;*

➤ *talabgor tomonidan taqdim etilgan ilmiy ma'lumotlarning baholash komissiyasi tomonidan noto'g'ri talqin etilganligi;*

➤ *axborot tizimi yoki texnik vositalardagi nosozlik baholash natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi.*

Faqat olingan balldan yoki tanlov natijasidan norozilikning o'zi apellyatsiyani qanoatlantirish uchun asos hisoblanmaydi.

Apellyatsiyada yangi ilmiy natijalarni taqdim etishni cheklash

Apellyatsiyani ko'rib chiqishda talabgor tomonidan dastlabki taqdimot vaqtida mavjud bo'lmagan:

➤ *yangi ilmiy natijalar;*

➤ *yangi maqolalar;*

➤ *qo'shimcha materiallar;*

➤ *yangilangan taqdimot;*

➤ *o'zgartirilgan tadqiqot konsepsiyasi baholash uchun qabul qilinmaydi.*

Apellyatsiyani ko'rib chiqishda foydalaniladigan dalillar

Apellyatsiya komissiyasi quyidagilarni o'rganadi:

➤ *talabgorning apellyatsiya arizasi;*

➤ *ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti;*

➤ *taqdimotning videoyozuvi;*

➤ *har bir ekspertning individual baholash varaqasi;*

➤ *yakuniy baholash qaydnomasi;*

➤ *berilgan savollar va talabgor javoblari;*

➤ *komissiya majlisi bayonnomasi;*

➤ *zaruratga ko'ra axborot tizimidagi tegishli elektron ma'lumotlar.*

Apellyatsiyani ko'rib chiqish muddati

Apellyatsiya arizasi kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kunidan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Talabgorga apellyatsiyani ko'rib chiqish sanasi, vaqti va joyi kamida bir ish kuni oldin elektron yoki boshqa aloqa vositasi orqali ma'lum

qilinadi. Talabgor apellyatsiya majlisida bevosita yoki, zaruratga ko'ra, videokonferensaloqa orqali ishtirok etish huquqiga ega.

Talabgorning ishtiroki

Apellyatsiya jarayonida talabgorga o'z e'tirozlarini asoslash uchun 15 daqiqagacha vaqt berilishi mumkin. Bunda talabgor yangi taqdimot o'tkazmaydi, balki apellyatsiya arizasida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan izoh beradi. Komissiya a'zolari talabgorga faqat apellyatsiya mazmuniga tegishli aniqlashtiruvchi savollar berishi mumkin.

Qayta baholash mexanizmi

Apellyatsiya komissiyasi baholash natijasini shunchaki muhokama qilmaydi, balki tasdiqlangan mezonlar asosida qayta ekspert baholashini amalga oshiradi. Har bir a'zo bahsli mezonlar bo'yicha mustaqil ravishda ball qo'yadi. A'zolar qo'ygan ballar asosida o'rtacha qiymat aniqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasining qarorlari

Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- *dastlabki baholash natijasini o'zgarishsiz qoldirish;*
- *aniqlangan hisob-kitob yoki baholash xatosini tuzatish va yakuniy ballni qayta hisoblash;*
- *ayrim baholash mezonlari bo'yicha ballarni qayta belgilash;*
- *baholash jarayonida jiddiy protsessual buzilish aniqlangan taqdirda talabgorning taqdimotini yangi tarkibdagi komissiya tomonidan qayta baholash to'g'risida qaror qabul qilish.*
- *videoyozuv mavjud bo'lmasa, manfaatlar to'qnashuvi aniqlansa yoki talabgorga ajratilgan vaqt sezilarli ravishda qisqartirilgan bo'lsa, bunday holatda yangi ekspert tarkibi tomonidan qayta baholash.*

Qarorning asoslantirilishi

Apellyatsiya komissiyasining qarori asoslantirilgan xulosa shaklida rasmiylashtiriladi. Xulosada:

- *talabgorning apellyatsiya talabi;*
- *o'rganilgan dalillar;*
- *bahsli baholash mezonlari;*
- *dastlabki va apellyatsiya baholari;*
- *ball o'zgarishining sababi;*
- *komissiyaning yakuniy qarori aniq ko'rsatilishi shart.*


Ovoz berish tartibi

Apellyatsiya komissiyasi majlisi uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Qaror majlisda ishtirok etayotgan komissiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiya a'zosining alohida fikri mavjud bo'lgan taqdirda, u yozma ravishda bayonnomaga ilova qilinishi mumkin.

Yakuniy natijani rasmiylashtirish

Apellyatsiya komissiyasining qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng bir ish kuni ichida talabgorning shaxsiy kabinetiga joylashtiriladi yoki unga elektron shaklda yetkaziladi. Apellyatsiya natijasida baholash bali o'zgargan taqdirda tanlov natijalari tegishli ravishda qayta hisoblanadi.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash
bo'limi boshlig'i**



N. Xonto'rayev